MA’NAVIYATSHUNOSLIK FANINING RAQAMLI TA’LIMGA INTEGRATSIYASI MAZMUNI, METODLARI VA VOSITALARI

Yo‘ldoshev Sherzod Ravshan o‘g‘li, Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti, Guliston davlat pedagogika instituti “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
e-mail: sherzod.yoldoshev.off@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ma’naviyatshunoslik fanini raqamli ta’limga integratsiyalash zarurati bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida o‘rganiladi. An’anaviy ta’limdan raqamli muhitga o‘tishda mazkur fanning mazmuni, metodlari va didaktik vositalarini zamonaviy talablarga moslashtirish ehtiyoji asosiy ilmiy muammo sifatida belgilangan. Tadqiqotda tizimli yondashuv, pedagogik modellashtirish, tahlil-sintez, taqqoslash va amaliy kuzatish metodlaridan foydalanilgan. Raqamli ta’lim sharoitida ma’naviyatshunoslikni o‘qitishga doir o‘quv platformasi yaratish, multimediya va interaktiv vositalarni integratsiya qilish asosida samaradorlikni oshirishga erishilgan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv nazariy asoslanib, raqamli ta’limda ma’naviy tarbiyaning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ushbu yo‘nalishda o‘qituvchilar va ta’lim tashkilotlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy ta’lim muhitida ma’naviy qadriyatlarni yetkazishning yangi usullarini taklif etadi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, ma’naviyatshunoslik, didaktik model, integratsiya, metodologiya, innovatsion texnologiyalar, raqamli platforma, amaliy yondashuv.

СОДЕРЖАНИЕ, МЕТОДЫ И ИНСТРУМЕНТЫ ИНТЕГРАЦИИ ДУХОВНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ЦИФРОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Аннотация. В данной статье исследуется необходимость интеграции науки о духовности в цифровое образование как актуальная научно-педагогическая проблема современности. Основной научной проблемой обозначена потребность адаптации содержания, методов и дидактических средств духовности к современным требованиям в условиях перехода от традиционного обучения к цифровой среде. В исследовании использованы методы системного подхода, педагогического моделирования, анализа и синтеза, сопоставления и практического наблюдения. В результате достигнута эффективность за счёт создания учебной платформы по преподаванию духовности в цифровом формате, интеграции мультимедийных и интерактивных средств. Разработанный автором подход теоретически обоснован и направлен на обеспечение качественно нового уровня духовного воспитания в цифровом образовании. Результаты исследования имеют практическое значение для преподавателей и образовательных учреждений, предлагая новые методы передачи духовных ценностей в современной образовательной среде.

Ключевые слова: цифровое образование, духовность, дидактическая модель, интеграция, методология, инновационные технологии, цифровая платформа, практический подход.

CONTENT, METHODS AND TOOLS OF INTEGRATION OF SPIRITUAL STUDIES INTO DIGITAL EDUCATION

Abstract. This article explores the integration of the science of spirituality into digital education as a pressing scientific and pedagogical issue of today. The core research problem is defined as the need to adapt the content, methods, and didactic tools of spirituality to modern requirements during the transition from traditional to digital learning environments. The study employs a systematic approach, pedagogical modeling, analysis and synthesis, comparative analysis, and practical observation methods. The research achieved improved effectiveness through the development of a digital learning platform for teaching spirituality, integrating multimedia and interactive tools. The author's approach is theoretically grounded and aims to elevate spiritual education to a qualitatively new level within digital learning contexts. The findings hold practical significance for educators and educational institutions by offering innovative methods for conveying spiritual values in modern educational settings.

Keywords: digital education, spirituality, didactic model, integration, methodology, innovative technologies, digital platform, practical approach.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar turmushimizning barcha sohalariga, ayniqsa, ta'lim tizimiga faol kirib kelayotgani yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Dastlab elektron resurslar va interaktiv ko‘rgazmalar ko‘rinishida boshlangan bu jarayon bugungi kunga kelib to‘liq raqamli platformalar, masofaviy o‘qitish formatlari hamda AR/VR texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan virtual o‘quv muhitlariga qadar rivojlandi. Dunyo ta'lim tizimlarida ro‘y berayotgan raqamli o‘zgarishlar faqatgina ta'lim uslublarining emas, balki butun didaktik tizimning mazmuniy tarkibini qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, AQSh, Janubiy Koreya, Singapur va Estoniya singari davlatlar o‘zlarining ta'lim siyosatlarida raqamli pedagogik yondashuvlarni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olganlar.

O‘zbekiston ta'lim sohasi ham raqamli texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish borasida bosqichma-bosqich isloh qilinmoqda. "Raqamli O‘zbekiston – 2030" dasturi, oliy ta'limda masofadan o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish, elektron ta'lim platformalarini yaratish va ulardan foydalanish bo‘yicha ilgari surilgan tashabbuslar bu yo‘ldagi muhim qadamlardandir. Ayniqsa, 2020-yilda yuzaga kelgan pandemiya sharoitida masofaviy ta'lim tajribasining keng qo‘llanilishi mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida raqamli o‘quv vositalarini tezkor joriy etish zaruratini keskin oshirdi. Shu asosda respublika bo‘ylab elektron o‘qitish tizimlari, videodarslar hamda test dasturlari tatbiq etila boshlandi. Biroq bu tajribalar, asosan, o‘quv mazmunini texnik usullar bilan yetkazib berishga qaratilgan bo‘lib, chuqur didaktik yondashuvlar, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun maxsus ishlab chiqilgan metodikalar yetarlicha shakllanmaganligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqotning ilmiy muammosi – Ma'naviyatshunoslik fanini raqamli muhitga moslashtirishda samarali didaktik yondashuvlar, metod va vositalarni aniqlash va pedagogik jihatdan asoslash zaruratidir.

Tadqiqotning maqsadi – Ma'naviyatshunoslik fanining raqamli ta'limga integratsiyalashuvi jarayonini ilmiy-pedagogik asoslash, zamonaviy metod, vosita va texnologiyalarni aniqlash hamda ularning o‘quv jarayonidagi samaradorligini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot obyekti – raqamli ta'lim muhitida oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy fanlarning o‘qitilishi jarayoni.

Tadqiqot predmeti – Ma'naviyatshunoslik fanining raqamli ta'limga integratsiyasida qo‘llaniladigan mazmun, metodlar va didaktik vositalar tizimi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha sohalariga, xususan ta’lim tizimiga jadal kirib keldi, bu jarayon ta’limni modernizatsiya qilish, interaktiv va masofaviy ta’limni rivojlantirish zaruratini yaratdi. Shu bilan birga, bu holat ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va vositalarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Jumladan, raqamli transformatsiya butun didaktik modelni qayta qurishni talab qilmoqda [6, 184-b.].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalarning ta’limdagi o‘rni turli nuqtai nazarlarda yoritilgan. Masalan, D. Laurillard o‘z tadqiqotlarida raqamli muhitda o‘quvchini faol bilim oluvchi subyekt sifatida shakllantirish zaruratiga urg‘u beradi [3, 272-b.]. R.Clark esa raqamli vositalarning pedagogik samaradorligini oshirish uchun aniq didaktik yondashuvlarni taklif etadi [1, 384-b.].

O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham raqamli ta’limning imkoniyatlari keng yoritilgan. Masalan, To‘xtasinov A. raqamli ta’lim muhitining konseptual asoslarini belgilagan bo‘lsa, Jo‘rayev M. masofaviy o‘qitishning metodik jihatlarini o‘rgangan [7, 198-b.]. Biroq, bu asarlarda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi fanlarni raqamli formatga moslashtirish bo‘yicha chuqur tahlillar yetarli emas.

“Ma’naviyatshunoslik” faniga oid adabiyotlar esa, asosan, ma’naviyatning mazmuni, shakllanishi va tarbiya jarayonidagi o‘rni kabi mavzularni yoritadi. Jumladan, Erkayev A., Masharipova G., Xo‘janova T. kabi mualliflar milliy qadriyatlar, ma’naviy meros va shaxs kamoloti masalalariga doir chuqur nazariy qarashlar ishlab chiqqan [2], [4, 326-b]. Ammo bu fanni raqamli formatga moslashtirish, interaktiv vositalar orqali o‘qitish metodikasini ishlab chiqishga doir alohida ishlanmalar mavjud emas.

Xorijiy tajribaga e’tibor qaratilsa, Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar raqamli ta’limni davlat strategiyasi darajasida yo‘lga qo‘ygan. Bu davlatlar tajribasida raqamli o‘quv platformalari, AR/VR texnologiyalari, moslashtirilgan o‘quv modullari orqali gumanitar fanlarni ham muvaffaqiyatli raqamlashtirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan [5, 215-b.].

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar raqamli ta’limning umumiy konsepsiyasi, texnologik asosi va potensialini yoritadi. Biroq “Ma’naviyatshunoslik” fanining o‘ziga xosligi, uning tarbiyaviy, axloqiy-estetik va madaniy komponentlarini raqamli formatga mos didaktik usullar orqali yetkazish bo‘yicha ilmiy ishlanmalar yetarli emas. Shu bois, ushbu maqola ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tahlil va yondashuvlarni taklif etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida gumanitar yo‘nalishdagi fanlarni, xususan, “Ma’naviyatshunoslik” fanini integratsiyalash dolzarb ehtiyoj sifatida maydonga chiqmoqda. Bu fan nafaqat nazariy bilimlarni berishga, balki talabalar ongida axloqiy-estetik qarashlar, shaxsiy pozitsiya va jamiyat oldidagi ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Shu bois, uni raqamli formatga moslashtirish oddiy elektron o‘quv materiallarini tayyorlash bilangina cheklanmay, balki didaktik, texnologik va metodik jihatdan mukammal o‘ylangan pedagogik modelni ishlab chiqishni talab etadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi – “Ma’naviyatshunoslik” fanini raqamli sharoitda samarali o‘qitish uchun kompleks o‘quv-didaktik tizim yaratishdan iborat. Shu maqsadda **“Raqamli ma’naviyat platformasi”** nomli eksperimental o‘quv modeli ishlab chiqildi. Mazkur model zamonaviy ta’lim texnologiyalari, pedagogik prinsiplar va milliy-ma’naviy qadriyatlarni uzviy uyg‘unlashtirgan holda qurilgan. O‘quv kontenti 5 ta modulga ajratilgan bo‘lib, ular o‘z ichiga jami 48 ta asosiy mavzuni qamrab oladi. Har bir modul mantiqiy izchillik, g‘oyaviy yaxlitlik va bosqichma-bosqichlik tamoyillari asosida tashkil etilgan.

Modullar tarkibida talabalar uchun quyidagi ketma-ketlikda ta’lim resurslari joylashtirilgan: ma’ruza → videodars → taqdimot → seminar → test → esse. Bu

ketma-ketlik talabaning bilim olishdan tortib, uni tahlil qilish va ijodiy qo‘llashgacha bo‘lgan bosqichlarni bosib o‘tishini ta’minlaydi. Dastlabki bosqichda nazariy bilimlar beriladi, keyingi bosqichlarda esa bu bilimlar ko‘rgazmali va amaliy shaklda mustahkamlanadi. Seminar mashg‘ulotlari orqali faol muloqot va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi, test topshiriqlari esa dastlabki bilim nazoratini ta’minlaydi. Yakuniy bosqich esse yozish orqali talaba mavzu bo‘yicha mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish va o‘z nuqtai nazarini bayon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi (bu topshiriq asosan mustaqil ta’lim uchun qo’llaniladi).

Bu struktura Bloom taksonomiyasining bilimni egallash, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish bosqichlariga mos keladi. Shu orqali ta’lim jarayonining har bir bosqichida kognitiv rivojlanish ta’minlanadi va raqamli pedagogika tamoyillariga mos ilg‘or metodologik yondashuv vujudga keladi.

Tahlil va natijalar. Mazmunni tanlashda quyidagi tamoyillarga qat’iy rioya qilinadi:

- **G‘oyaviy-tarbiyaviy yondashuv:** har bir mavzu ijtimoiy ong va axloqiy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi;
- **Ilmiylik:** barcha materiallar ilmiy asoslangan va ilmiy adabiyotlar bilan bog‘liq;
- **Mantiqiylik va izchillik:** mavzular ketma-ketlikda, murakkablik darajasiga ko‘ra joylashtirilgan;
- **Mustaqil ta’limga yo‘naltirish:** modul strukturasida esse, test va aloqa bo‘limlari orqali talabalar faol ishtirokga undaladi.

Modul mazmuni A. Erkayevning “Ma’naviyatshunoslik” nomli monografiyasi, muallif Sh. Yo‘ldoshev tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ma’naviy-ma’rifiy sohadagi normativ-huquqiy hujjatlari, strategik dasturlari hamda milliy ma’naviy meros asoslariga tayanadi. Shu bilan bir qatorda, platformaning tarkibiy mazmunida muallifning shaxsiy metodik yondashuvi ham mujassam: mavzularni tanlash, asosiy savollarning tuzilishi, interfaol mashqlar va videodarslardagi mulohazalar muallifning kasbiy tajribasi va tahliliy qarashlari asosida ishlab chiqilgan.

Videodarslar oddiy nazariy ma’lumotlarni takrorlash bilan cheklanmay, har bir mavzuning asosiy g‘oya va konseptual mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Ularda tarixiy dalillar, ijtimoiy-hayotiy misollar, muammoli vaziyatlar va fikrlar xilma-xilligi orqali o‘quvchining mustaqil tahliliy yondashuvini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Bu yondashuv “Ma’naviyatshunoslik” fanining faqat bilim emas, balki talabaning dunyoqarashi va ijtimoiy ongini shakllantiruvchi ijtimoiy-falsafiy maydonga aylanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, platformadagi didaktik kontent zamonaviy raqamli ta’limning asosiy talablariga mos bo‘lib, talabaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, uni ongli, mustaqil qaror chiqaruvchi va axloqiy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Mazkur fan raqamli ta’lim muhitida o‘qitilganda, faqatgina mazmuniy yangilanish emas, balki didaktik yondashuvlar va metodlarni ham tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. An’anaviy, monologik uslublar o‘rnini endilikda interaktiv, shaxsga yo‘naltirilgan va faol metodlar egallamoqda. “Raqamli ma’naviyat platformasi”da asosiy tamoyil sifatida o‘quv jarayonini o‘qituvchi markazidan talaba markaziga ko‘chirish prinsipi qo‘llanilgan.

Birinchi asosiy metod – bu interaktiv o‘qitish usullaridir. Ushbu yondashuv orqali talabalar darsdagi passiv tinglovchi emas, balki faol bilim egasiga aylanadi. Seminar mashg‘ulotlari va esse yozish topshiriqlari munozara va bahs orqali talabaning mustaqil fikr bildirishiga, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishiga va shaxsiy pozitsiyasini ifodalashiga imkon yaratadi. Ayniqsa, “aqliy hujum”, “idrok xaritasi” kabi metodlar dars mavzusi atrofida ijodiy va assotsiativ tafakkurni faollashtirib,

muammoli vaziyatlarga ijodiy yechimlar topishga xizmat qiladi. Bu esa o‘quv jarayonini biryoqlama ma’lumot berishdan olib chiqib, bilimni muloqot va ishtirok asosida shakllantiruvchi faol va demokratik ta’lim muhitini ta’minlaydi.

Ikkinchi metod – vizual yondashuvlarga asoslangan ko‘rgazmali usullardir. Bu metod raqamli texnologiyalarning grafik, audio va vizual imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Videodarslar orqali mavzular ko‘rgazmali vositalar bilan mustahkamlanadi, ovozli sharhlar esa axborotni boyitadi. Taqdimotlarda esa asosiy tushunchalar diagramma, jadval, grafik va obrazlar orqali aniqlik bilan yoritiladi. Bunday ko‘rinishda bilim nafaqat eshitish, balki ko‘rish orqali ham samarali o‘zlashtiriladi.

Uchinchi metod – bu muammoli-tahliliy uslub bo‘lib, u talabaning tanqidiy fikrlash va chuqur tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Platformadagi darslar va topshiriqlar mavzularni oddiy taqdim etishdan ko‘ra, talabani dolzarb ijtimoiy-ma’naviy masalalar ustida mushohada yuritishga undaydi. Muammoli savollar orqali ijtimoiy-falsafiy mulohaza, asoslangan pozitsiya bildirish, baholash va tahliliy fikrlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Bu metod o‘quvchining mavzuga nisbatan chuqur va ongli yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchi metod – mustaqil o‘qish va refleksiya (o‘z-o‘zini tahlil qilish) usullaridir. Bu yondashuv talabaning o‘z sur’atida o‘rganish, o‘z fikrini baholash va chuqurlashtirish imkonini beradi. Jumladan, esse yozish topshiriqlari orqali shaxsiy tahliliy salohiyat, mustaqil fikrlash va g‘oyaviy nuqtai nazar ifodalash ko‘nikmalari rivojlanadi. Test topshiriqlari esa bilim darajasini o‘z-o‘ziga baholash imkonini yaratadi. Platformadagi “Aloqa” bo‘limi esa talaba-o‘qituvchi o‘rtasida doimiy interaktiv muloqotni ta’minlaydi.

Beshinchi metod – bu modul asosidagi integratsiyalashgan kompleks yondashuv bo‘lib, unda har bir mavzu ma’ruza, videodars, taqdimot, test va esse elementlari orqali izchil va tizimli tarzda o‘zlashtiriladi. Bu metodik birikma yagona g‘oyaviy asosga tayanib, *bilim berish → anglatish → mustahkamlash → tahlil qilish → ijodiy ifoda qilish* kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur integratsiyalashuv ta’lim samaradorligini oshirib, har bir bosqichda talabani faol ishtirok etishga undaydi.

Platformada qo‘llanilayotgan barcha didaktik metodlar quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan:

Shaxsga yo‘naltirilganlik – har bir talabaning o‘ziga xosligi, o‘rganish uslubi va sur’atini inobatga olish;

Faollashtiruvchi yondashuv – talabaning faol ishtirokini, tahliliy fikrlashini rag‘batlantirish;

Natijaviylik – har bir metod orqali aniq bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Aynan shu asosda “Raqamli ma’naviyat platformasi” nafaqat zamonaviy mazmunni taqdim etadi, balki uni interaktiv, tahliliy va ijodiy didaktik yondashuvlar yordamida samarali o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Zamonaviy raqamli ta’lim texnologiyalari jadal sur’atlarda rivojlanayotgan hozirgi davrda “Ma’naviyatshunoslik” fanini samarali o‘rgatishda moslashuvchan, interaktivlik va multimediaviy **vositalar** muhim o‘rin egallaydi. “Raqamli ma’naviyat platformasi”da tatbiq etilgan didaktik vositalar ta’lim mazmuni hamda uslublari bilan uyg‘unlashgan holda, talabalarda bilim egallash, tahliliy yondashuv va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Birinchi vosita - ma’ruza matnlari. Har bir modulning nazariy bazasini tashkil etuvchi ma’ruza matnlari “Raqamli ma’naviyat platformasi”da ilmiylik, mantiqiy izchillik va tizimlilik prinsiplari asosida ishlab chiqilgan. Ushbu materiallar mavzularni ketma-ketlikda ochib berib, asosiy tushunchalarni sodda va aniq til orqali bayon etadi hamda modulning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaydi. Shuningdek, ularning mazmunida muallifning o‘ziga xos yondashuvi aks etgan bo‘lib, mavzuga tanqidiy

qarash va konseptual izohlar berish imkonini yaratadi. Natijada, ma’ruza matnlari nafaqat bilim manbai, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va nazariy bilimlarni chuqur anglash vositasiga aylanadi.

Ikkinchi vosita - videodarslar. Bu vositalar raqamli ta’limning ilg‘or va samarali shakli bo‘lib, fan mazmunini faqat matn shaklida emas, balki audio-vizual ko‘rinishda ham o‘rgatish imkonini beradi. Videodarslar murakkab, abstrakt tushunchalarni soddalashtirib tushuntiradi, nutq, mimika va vizual elementlar orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ular o‘quvchilarga mustaqil va mos ritmda o‘rganish imkonini yaratadi, shu bilan birga mavzuni chuqurroq anglash hamda amalda tatbiq etish uchun zamin hozirlaydi. Shuningdek, bu vosita interaktivlikni oshirib, bilimlarni mustahkamlash va diqqatni jamlashda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi vosita - taqdimotlar. Har bir mavzuni aniq va tizimli tushunishga yordam beruvchi bu vosita asosiy tushunchalarni grafik, sxematik va tasviriy ko‘rinishda yoritadi. Taqdimotlar mavzuning ichki tuzilishini ochib beradi, ma’lumotlarni tartibga soladi va eslab qolishni osonlashtiradi. Ular nafaqat ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini, balki guruhli muhokama hamda mustaqil o‘rganish jarayonlarini ham interaktiv tarzda qo‘llab-quvvatlaydi. Zamonaviy multimediyaviy elementlar bilan boyitilgan taqdimotlar o‘qituvchi va o‘quvchi uchun raqamli ta’limning ajralmas tarkibiy qismlaridan biriga aylanib ulgurgan.

To‘rtinchi vosita - seminar dars ishlanmalari. Ushbu metodik materiallar seminar darslarini samarali tashkil etish uchun tuzilgan bo‘lib, tahlil va munozaraga asoslangan savollarni o‘z ichiga oladi. Bu orqali talabalar mavzuga chuqurroq, individual yondashadi, mustaqil fikrlashga undaladi, argumentlar asosida bahs yuritishga va konstruktiv muloqotga jalb etiladi. Seminar ishlanmalari o‘quv jarayonining interaktivligini kuchaytirib, tanqidiy tafakkur, ijodiy yondashuv va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Beshinchi vosita – testlar. Har bir mavzu uchun ishlab chiqilgan onlayn testlar orqali talabalar bilim darajasini aniqlash mumkin. Avtomatik tekshiruv tizimi yordamida xatoliklar tezda aniqlanadi va o‘quv jarayoni samarali nazorat qilinadi. Takroriy test topshirish imkoniyati esa bilimlarni mustahkamlash, xatolar ustida ishlash va chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu baholash tizimi shaffoflikni ta’minlab, samarali teskari aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi hamda individual yondashuvga asoslangan raqamli ta’lim muhitini yaratadi.

Oltinchi vosita - esse topshiriqlari (refleksiv va ijodiy faoliyat shakli). Esse yozish jarayoni talabalarni o‘z nuqtai nazarini aniq ifodalash, mavzu doirasida mustaqil fikr yuritish va chuqur tahlil qilishga undaydi. Bu jarayonda o‘quvchilar nafaqat o‘zlashtirilgan bilimlarni takrorlaydi, balki ularni yangicha, ijodiy yondashuvda aks ettiradi. Shuningdek, esse topshiriqlari mantiqiy fikrlash, dalillash va xulosalash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilib, o‘zini anglash va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, “Raqamli ma’naviyat platformasi”da joriy etilgan didaktik vositalar modul asosidagi yondashuvga tayangan holda, har bir metodik bosqichning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirilgan. Bu vositalar zamonaviy multimedia texnologiyalari va raqamli pedagogika yutuqlari asosida ishlab chiqilib, nafaqat bilimlarni samarali yetkazish, balki talabalarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, erkin ifoda va muloqotga kirishish kabi zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuv raqamli ta’lim tizimining muhim va ajralmas qismiga aylanib, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga, talabaning darsda faol ishtirokchi bo‘lishini ta’minlashga va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga keng imkoniyat yaratmoqda.

“Ma’naviyatshunoslik” fanini raqamli muhitda o‘qitish bo‘yicha taklif etilgan metodlar an’anaviy monologik yondashuvlardan farqli o‘laroq, talabaning faol

ishtirokini ta’minlovchi, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan usullarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, “aqliy hujum”, “idrok xaritasi”, muammoli tahlil, esse yozish kabi usullar orqali talabaning ijodiy va tanqidiy fikrlashi rag‘batlantiriladi, videodarslar va taqdimotlar orqali esa mavzularni ko‘rgazmali ifodalash orqali bilim chuqurlashtiriladi. Mustaqil o‘qish topshiriqlari, onlayn testlar va muloqot bo‘limi orqali esa talabaga o‘z bilim faoliyatini mustaqil rejalashtirish va baholash imkoniyati yaratiladi. Barcha metodlar bosqichma-bosqich bilim berish, tushuntirish, mustahkamlash, tahlil va ijodiy ifodani o‘z ichiga olgan tizimli didaktik yondashuv asosida integratsiyalashgan bo‘lib, natijada shaxsga yo‘naltirilgan, natijaviylik va faollashtiruvchi tamoyillar asosida ta’lim samaradorligini oshiradi.

Fan mazmunini shakllantirishda esa raqamli texnologiyalar va tarbiyaviy-ma’naviy yondashuvlar uyg‘unligi asosida puxta tuzilgan o‘quv-didaktik modelni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu model Bloom taksonomiyasiga muvofiq bilimni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish va amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi. Mazmun tanlashda esa ilmiylik, mantiqiylik, ma’naviy-tarbiyaviy yondashuv va mustaqil ta’limni rag‘batlantirish kabi tamoyillar yetakchi o‘rin egallaydi. Ayniqsa, videodarslar, interaktiv topshiriqlar va esse yozish jarayonlari orqali “Ma’naviyatshunoslik” fani nafaqat nazariy bilim manbai, balki shaxsiy dunyoqarash va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiruvchi muhim g‘oyaviy-falsafiy fan sifatida talabalarning ichki dunyosini boyitishda muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan, raqamli ta’lim muhiti talabaning har tomonlama intellektual va axloqiy kamolotini ta’minlashga xizmat qiladigan zamonaviy, kompleks va interfaol pedagogik muhit sifatida takomillashtirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Clark R. E-Learning and the Science of Instruction. – San Francisco: Pfeiffer, 2016. – 384 p.

2. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. Monografiya. 1-2-kitob. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2018.

3. Laurillard D. Teaching as a Design Science. London: Routledge, 2012. 272-p.

4. Masharipova G., Xo‘janova T. Ma’naviyatshunoslik. Darslik. – Toshkent: “Fan ziyosi”, 2022. 326-b.

5. Park Y. Digital Pedagogy in Korean Education. – Seoul: KEDI Press, 2020. 215-p.

6. Qodirov M. Raqamli ta’limning metodik asoslari. – Toshkent: Fan, 2022. 184-b.

7. To‘xtasinov A. Raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. 198-b.